

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 5/10 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuzyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YI INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOYIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асаля Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

THE PROBLEM OF HUMAN NATURE IN MODERN WESTERN PHILOSOPHY

Ergashev Ozodbek Shavkatovich

Doctor of Philosophy (PhD)

Andijan State Technical Institute

Department of Languages and Humanities

Abstract. This scientific article examines the views of modern Western philosophers on human nature and socialization. In particular, the article highlights various historical perspectives on the state of humanity and identifies different approaches to related problems.

Keywords: human, existentialism, intuition, personalism, anthropology, human essence, thinking, materialism, idealism, life, feelings, will, observation, understanding, interest, desire, aspiration.

YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI

Ergashev Ozodbek Shavkatovich

Falsafa fanlari falsafa doktori (PhD)

Andijon davlat texnika instituti

Tillar va gumanitar fanlar kafedrası

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada yangi davr G'arb faylasuflarining inson tabiati va ijtimoiylashuv masalalariga oid qarashlari tadqiq etilgan. Xususan, maqolada insoniyat holatiga doir turli tarixiy nuqtai nazarlar yoritilgan hamda bu bilan bog'liq muammolarga turlicha yondashuvlar mavjudligi aniqlangan.

Kalit so'zlar: inson, ekzistensializm, intuitivizm, personalizm, antropologiya, inson mohiyati, tafakkur, materializm, idealizm, hayot, sezgilar, xohish-iroda, mushohada, anglash, qiziqish, istak, intilish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N30>

Kirish. Butun dunyo faylasuflari o'z tadqiqotlarida quyidagi savollarga javob izlaganlar: Inson hayotining mazmuni va maqsadini nima belgilaydi? Dunyoda insonning o'rni qanday? Inson olamni idrok eta oladimi? Falsafa insonni qaysi jihatdan o'rganadi? Turli davrlarda yashagan mutafakkirlar bu masalalarga turlicha fikr bildirganlar va ko'plab asarlar yozib qoldirganlar. Zamonaviy davr falsafasi insonning ijtimoiy munosabatlardagi ishtiroki va bilish subyekti sifatidagi yondashuvlarida o'z aksini topadi. [1; 14-b.]

Masalan, Dekart inson mohiyatini tafakkur va mavjudlikka nisbatan oqilona shubhada ko'rgan. XVIII asr fransuz materialistlari — Gassendi, Didro, Golbax, Gelvetsiy, Lametri va boshqalar tabiatshunoslik va mexanikaning ajoyib yutuqlaridan ta'sirlanib, inson ruhini ong va aql bilan, tanasini esa mashina bilan tenglashtirib, uni mexanik tarzda talqin qilganlar.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Buyuk nemis faylasufi I. Kant (1724-1804) insonni tushunish va talqin qilishda muhim qadam tashladi. U insonni alohida falsafiy tadqiqotlar olib borish mumkin bo'lgan noyob va betakror mavjudot deb hisoblagan. Shu bilan birga, u "Inson dunyodagi o'rganilishi mumkin bo'lgan eng muhim mavzudir, chunki u o'zi

uchun pirovard maqsaddir” [2;17-b.], deb ta’kidlagan. Kantning borliq haqidagi qarashlarida jonsiz tabiat, jonli tabiat va inson tabiati alohida o’rganish obyektlariga aylandi. Uning fikricha, bu darajalarning har birida tabiat o’z qonunlariga ega: jonsiz tabiat mexanika qonunlariga bo’ysunadi, jonli tabiat esa maqsadga muvofiqlikka bo’ysunadi. Inson tabiati esa o’zining erkinligi bilan ajralib turadi.

L. Feyerbax (1804-1872) insonga tarixiy va ma’naviy taraqqiyot mahsuli sifatida emas, balki biologik, hissiy-jismoniy mavjudot sifatida qaradi, unga tabiiy-biologik mavjudot sifatida yondashdi. Uning ta’kidlashicha, inson Xudo tomonidan yaratilgan mavjudot emas, balki tabiatning bir qismidir, inson mexanizm emas, balki fransuz faylasuflari e’tirof etganidek organizmdir. Shuning uchun ham Feyerbax falsafasi “antropologik materializm” deb atalgan.

Muhokama. XIX asrdan boshlab Yevropa falsafiy tafakkuri F. Shelling, A. Shopengauer, M. Shtirner, S. Kerkegor, F. Nitsshe, N. Berdyayev, G. Bergson kabi faylasuflar hayot, sezgilar, iroda va intuitiv bilish tushunchalarini maxsus falsafiy tahlil predmetiga aylantirdilar. Keyinchalik bu g’oyalar ekzistensializm, intuitivizm, personalizm kabi falsafiy oqimlarda rivojlantirildi. Xususan, ekzistensializm nuqtai nazaridan obyektiv dunyo, avvalo, “inson borlig’i” bo’lib, insondan tashqaridagi dunyo haqida so’z yuritish mumkin emas. Ekzistensializm oqimining rivojlanishida hal qiluvchi rol o’ynagan M. Xaydegger, falsafiy antropologiya asoschilaridan biri M. Sheler, tanqidiy antropologiya oqimining asoschisi N. Gartman, shuningdek, E. Levinas, R. Ingarden va boshqa mashhur faylasuflar inson bilan bog’liq falsafiy ta’limotlarning yaratuvchilari sifatida e’tirof etilganlar.

Inson muammosiga tarixiy nazar tashlaydigan bo’lsak, XX asr boshlariga kelib, falsafada yangi bilim sohasi — inson haqidagi ta’limot, ya’ni falsafiy antropologiya paydo bo’lishi uchun barcha shart-sharoitlar shakllanganini ko’rishimiz mumkin.

Natijalar. Per Gassendi XVII asrning ikkinchi yarmida Fransiyada yashab ijod etgan. U inson va uning ruhining kelib chiqishi haqidagi g’oyalarini ilgari surib, ruhning mayda, olovli, harakatchan atomlardan tashkil topganini tushuntirgan. Uning fikricha, ruh harakat ta’sirida bo’lib, sezish qobiliyatiga ham ega ekan. Ruh tananing barcha qismlarida mavjud bo’lib, tana o’lgach, ruh ham o’ladi. Jon atomlari tanani tark etganda o’lim sodir bo’ladi. Biroq o’lim jon atomlarining yo’q bo’lib ketishini anglatmaydi, ular mavjud bo’lishda davom etadi. Buning sababi shundaki, materiyani yo’q qilib bo’lmaydi. Gassendi fikricha, ruh atomlarining tanadan chiqib ketishi suv atomlarining bug’ga, olovning tutunga aylanishiga o’xshaydi. Ruh butun tanaga tarqalgan. Tana sog’lom bo’lsa, ruh ham sog’lom bo’lishi mumkin. Agar ruhning moddiy tomoni bo’lgan tana a’zolari nosog’lom bo’lsa, ruh ham nosog’lom bo’ladi. Gassendining qarashicha, inson a’zolarining o’sishi va rivojlanishi bilan bog’liq bo’lgan fikrlash qobiliyati tananing rivojlanishi, shuningdek, tasavvur, tajriba va sezgi a’zolarining rivojlanishi bilan birga kechadi. Inson a’zolarining o’sishi va rivojlanishi bilan bog’liq fikrlash qobiliyati, Gassendi fikricha, tananing rivojlanishi, shuningdek, tasavvur, tajriba va sezgi a’zolarining rivojlanishi bilan yonma-yon boradi.

Devid Xartli 1705-yilda Angliyada cherkov ruhoniysi oilasida dunyoga kelgan. Uning ko’p yillik tadqiqotlari natijasi bo’lgan asosiy asari “Inson, uning tuzilishi, burchi va umidlari haqida kuzatishlar” deb nomlanadi. Ushbu asar 1749-yilda nashr etilgan va uni XVIII asrning yetakchi mutafakkiriga aylantirgan. Bu asarda inson psixologiyasini o’rganish jarayonlari bosqichma-bosqich tahlil qilingan. Xartli xayol va tafakkur o’rtasidagi psixologik aloqalarni o’rganish asosida ong va xulq-atvor qonuniyatlarini ochib beruvchi keng qamrovli nazariya

yaratish ustida ishlagan. Bu uning psixofiziologik tadqiqotlarining asosini, sezgilarning tebranish tabiati haqidagi ta'limotini tashkil etadi. Tibbiyotni chuqur bilgan va o'z davrining anatomik-fiziologik qarashlariga tayanib, Xartli inson sezgisi va "sezgi a'zolarining takomillashuvi natijasida g'oyalarning paydo bo'lishi" sabablari bilan bog'liq yangi ta'limotga asos solgan.

Inson holati haqida so'z yuritganda, Gartli Nyuton ta'limotidagi g'oyaga tayanadi. Bu g'oyaga ko'ra, sezgi yorug'lik nurlarining ko'z to'r pardasiga ta'siri natijasida yuzaga keladigan tebranishlar mahsulidir. Gartlining fikricha, tebranishlar ko'ruv nervining qattiq tolalari orqali miyaga o'tib, ko'rish idrokini hosil qiladi. Nafaqat moddiy, balki sezgi a'zolariga ta'sir etuvchi hissiy narsalar ham miyaning son-sanoqsiz zarrachalarida, avval nervlarda, so'ngra miyada tebranishlar paydo qiladi. Bu emotsional holatlar his-tuyg'u va fikrlashning fiziologik asoslaridir. Biror jarayonning o'ziga xos xususiyati ana shunday tebranishlarning farqiga bog'liq bo'lib, ularning holati, turi, joylashuvi va yo'nalishiga qarab o'zgaradi. Insonning barcha aqliy qobiliyatlari miya orqali namoyon bo'ladi va Gartli o'z tahlilini asab tizimi bilan miya faoliyati o'rtasidagi aloqalarga bag'ishlaydi. Biroq u psixikaning moddiy asosi miya degan fikrdan chetga chiqadi. Buning sababini "Inson, uning tuzilishi, burchi va kutishlari haqidagi kuzatishlar" kitobining 2-qismida ko'rish mumkin. Unda psixologiyaning ilmiy talqinlari diniy e'tiqodlar bilan uyg'unlashib ketgan. Gartli shuningdek, alkogol, giyohvand moddalar, asab kasalliklari va shunga o'xshash zaharli moddalar miyaga zarar yetkazishi, aqlni ishdan chiqarishi va fikrlash jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqidagi tibbiy qarashlarini ham bayon etadi.

Julyen Offrey de La Mettri 1709-yilda Fransiyaning Sen-Malo shahrida tavallud topgan. U Parij universiteti tibbiyot fakultetini bitirgan. Faylasuf va tabiatshunos sifatida u bir qator asarlar yaratgan. Uning "Ruhning tabiiy tarixi" (1745), "Inson — mashina" (1747), "Inson — o'simlik" (1748) kabi asarlari inson bilan bog'liq muammolarni qamrab olgan bo'lib, o'z davrida katta ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lgan.

La Mettrining falsafiy qarashlari Dekartning hayvonlar his-tuyg'udan mahrum, degan g'oyasiga zid edi. Uning ta'kidlashicha, barcha tirik mavjudotlar bir xil sezish qobiliyatiga ega. Bu g'oya nafaqat insonga, balki barcha jonzotlarga taalluqli edi. Uning bu qarashlari "Inson — mashina" asarida yorqin ifodalangan [3; 73-76 b.].

Hissiyot barcha tirik organizmlarga xos ekanligini ilgari surgan La Mettrie, insonning hayvonot dunyosidan kelib chiqqanligi g'oyasini birinchilardan bo'lib taklif qilgan faylasuflardan biridir. "Inson — mashina" asarida muallif inson tuzilishi va faoliyatiga o'ziga xos tarzda yondashadi. La Mettrie fikricha, inson mexanik tuzilmalardan ma'lum darajada farq qiladi. U insonni mashinaning bir turi, his qilish, fikrlash va tushunish qobiliyatiga ega mavjudot deb hisoblaydi. Insonning eng muhim jihati yaxshilik va yomonlikni ajrata olish qobiliyatidir. Ya'ni, inson ruh bilan bog'liq g'oyalarni idrok etish qobiliyatiga ega. Inson tanasi o'z-o'zidan harakatlanuvchi mashina bo'lib, uzluksiz harakatning jonli mujassami ekanligi bilan texnikadan farqlanadi. Inson soat mexanizmi kabi harakatlanmaydi, aksincha, unda qonni oziqlantiruvchi suyuqlik mavjud. La Mettrie bu suyuqlikni "xilas" deb ataydi. Boshqacha aytganda, bu La Mettrie konsepsiyasida harakatning kuchayishi va, natijada, "xilas"ning faolligi bilan baholanadi. Garchi La Mettrie inson tanasini soatga o'xshatsa-da, u inson tanasidagi buzilish yoki kasallikni mexanik nosozlik sifatida emas, balki qon faoliyatining buzilishi, ya'ni inson xulq-atvorining o'zgarishi sifatida baholaydi. Uning fikricha, "Inson mukammal mashinadir."

U yana insonning kelib chiqishi uchun faqat biologik omillar emas, balki til va nutq ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Ijtimoiy muhit ham insonning shakllanishida asosiy omil sifatida xizmat qiladi. La Mettri fikricha, bu vositalar bo’lmasa, insonlar ayyor, xavfli va yirtqich hayvonlardir. Ular bu xususiyatlar bilan tug’iladilar va jamiyat ta’sirida insoniylik kasb etadilar. Sezgilari hamma narsadan ustun ekanligini isbotlashga harakat qilgan La Mettri, inson tanasi lazzat olish sharoitlariga alohida e’tibor qaratdi.

Deni Didro (1713-1784) ensiklopedistlarning yetakchisi edi. U Langres shahrida badavlat hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Dastlabki ta’limni mahalliy iyezuit kollejida olgach, Parijga ko’chib o’tdi. U yerda D’Harcourt kollejini tugatdi. Feodal tuzumga qarshi chiqqan Didro, zodagonlar va ruhoniylarning imtiyozli tabaqalariga qarshi xalq harakatiga boshchilik qildi. U yangi tuzumni qo’llab-quvvatladi va qirol hokimiyatiga qarshi turdi. Didro “Tabiatni talqin qilish haqida mulohazalar”, “D’Alamburning Didro bilan suhbat”, “D’Alamburning “Tush”, “Shubhaning so’qmog’i yoki xiyoboni”, “Rohiba”, “Ramoning jiyani”, “Fatalist Jak va uning xo’jayini”, “Fiziologiya asoslari”, “Seneka hayoti”, “Klavdiy va Neron hukmronligi haqida esse” asarlari Didroning mashhur ijod namunalaridir. Uning “Falsafiy mulohazalar” (1746) asari nashr etilgan yili parlament qarori bilan yoqib yuborilgan. Didro tabiat va inson muammolariga qayta-qayta murojaat qilib, fanning barcha davrlari va sohalarida insonning o’rni va uning tafakkur qudrati eng muhim masala ekanligini ta’kidlashdan charchamadi. Didro o’zining falsafiy ta’limotida “biz hali ko’p narsani bilmaymiz” iborasini tez-tez takrorlasa-da, inson bilimi rivojlangani sayin uning dunyo va mavjudlik sabablari haqidagi tasavvurlari ham kengayib borishini tushuntiradi. Didro inson haqidagi fikrlarini bayon etar ekan, insondagi fikrlovchi “men”ni miyaga in qurgan o’rgimchakka, asab tizimini esa inson tanasini o’rab olgan “o’rgimchak to’ri”ga o’xshatadi. Bu insonga “tabiatni sezgi a’zolari orqali anglash” imkonini beradi. Didro insonni hissiy qobiliyat va xotiraga ega bo’lgan asbobga qiyoslaydi. Garchi u inson bilimini manbai sezgi ekanligini ta’kidlasa-da, uning qarashlari o’ta sensualizmdan ancha uzoq. U ratsional mushohada va hissiy bilishning uyg’unlashgan shaklini ilgari suradi. Didro o’zining axloqiy qarashlarida “tabiiy inson” va “tabiiy insoniy ehtiyojlar” to’g’risida fikr yuritib, insondagi illatlar tabiiy asosga ega ekanini va ularni tarbiya orqali oqilona cheklash mumkinligini ta’kidlaydi. Didro ta’limotida ruhning harakati qanday bo’lishidan qat’i nazar, ruhning tana bilan qo’shilishi hissiy xususiyatga ega. His qilmoq — yashamoqdir. Sezgi nervlar orqali yuzaga keladi va unga sezgilarsiz yaqinlashib bo’lmaydi. Bu holda oddiy sezgilari yoqimli bo’lib, ular murakkab sezgilarni vujudga keltiradi. Tananing barcha qismlari bir xil sezgir emas. Yuqori darajadagi sezgi uchun nerv va uning miya bilan aloqasi erkin va to’siqsiz bo’lishi lozim. Sezgi a’zoldan miyaga yo’naltirilgan jarayondir. Harakat daraxt tanasidan shoxlarga va shoxlardan tanaga yo’nalgan tarzda tasvirlanadi. Didro tasavvurida jon murakkab sezgilarga ega bo’lgan keng qamrovli mavjudotdir. Ruh qanchalik quvnoq, g’amgin, jizzaki, nozikta’b, munofiq yoki shahvatparast bo’lmasin, u tanasiz hech narsa emas. Jismsiz birorta insonning mohiyatini tushuntirib bo’lmaydi. Aynan shu g’oyalar asosida Didro diniy ta’limotlarga qarshi chiqadi. Uning fikricha, din inson ruhi faoliyatini bo’g’ib qo’yadi. Shuningdek, u muhitni insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantiradigan omil deb hisoblaydi. Didro insonni tabiatan yovuz emas, balki “yomon tarbiya”, “yomon odatlar” va “yomon xulq-atvor” insonni buzadi, deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, muhit insonning ma’naviy-axloqiy qiyofasini belgilovchi omildir. [4; 25 b.].

Lyudvig Andreas Feyerbax (1804-1872) Germaniyaning Bavariya hududidagi Landshut shahrida mashhur huquqshunos Anselm Feyerbaxning oilasida dunyoga kelgan. U o'z falsafiy qarashlarida faqat insoniyat haqidagi g'oyalarni ilgari surgan. Insonni tabiat bilan bevosita bog'liqlikda tahlil qilgan. Uning fikricha, falsafaning asosiy mavzusi inson bo'lishi lozim. Faylasuf haqiqiy falsafa antropologiya ekanligini ta'kidlaydi. Feyerbaxning e'tiqodiga ko'ra, dinni tushunishning kaliti inson qo'lida, ya'ni inson tabiati, manfaatlari va intilishlari negizida yotadi.

Xulosa. Feyerbax o'z asarlari orqali insonning ijtimoiy mohiyatini ochib berishga intildi, biroq bunga to'liq erisha olmadi. Natijada, uning falsafasida inson tabiat yaratgan mavhum mavjudot sifatida qolib ketdi. U insonni yanada mukammal zot sifatida takomillashtirish, ayniqsa, uning ongida o'zgarishlar yasash, insonning Xudoga emas, balki boshqa insonlarga bo'lgan muhabbatini oshirishga xizmat qiladigan yangi e'tiqodni shakllantirish zarurligini ta'kidladi. Bu g'oyaning asosiga u muhabbat va mehrni qo'ydi. Mutafakkirning fikricha, muhabbat xudbinlik emas, aksincha, u insonni xudbinlikdan xalos etadi. Sevgi, aslida, boshqa inson uchun o'z hayotini fido qilishni anglatadi. Insonni moddiy tabiatga ega mavjudot sifatida tushunish asosida Feyerbax barcha insonlarning baxt-saodati uchun teng huquqlilik tamoyilini ilgari surdi.

Yuqorida keltirilgan qarashlardan ko'rinib turibdiki, inson tabiati masalasi nihoyatda ko'p qirrali bo'lib, u bilan bog'liq muammolarga turli xil yondashuvlar mavjud. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat bugungi kunda, balki kelajakda ham inson bilan bog'liq masalalar falsafaning asosiy muammolaridan biri bo'lib qolishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Gurevich P.S. Inson. -M.: 1995.
2. Kritskiy M.J. Inson kapitali - L.: Leningrad universiteti nashriyoti, 1991 yil, 17-bet. Leningrad.
3. Shermuhamedova N. Falsafa. - T.: Noshir, 2012.
4. To'ychiyeva B.T. Ijtimoiy falsafa asoslari: O'quv qo'llanma. - T.: Universitet, 2009.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).